

## ORIFXON HOTAMOV IJODIY FAOLIYATI XUSUSIDA

**Sobirov Nodir Axmedovich***V.Uspenskiy nomidagi RIMM “An’anaviy ijrochilik” bo‘limi bosh o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq hofizi, bastakor va mohir sozanda Orifxon Hotamovning ijodiy faoliyati musiqashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Unda san’atkorning shakllanish omillari, Farg‘ona–Toshkent ijro an’analari bilan bog‘liqligi, Jo‘raxon Sultonov maktabi ta’siri, bastakorlik uslubining yetakchi xususiyatlari, mumtoz she’riyat bilan ishlash tamoyillari, ustoz-shogird an’analaridagi o‘rni hamda o‘zbek an’anaviy xonandaligi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Orifxon Hotamov ijodi misolida XX asr ikkinchi yarmida o‘zbek mumtoz musiqa ijrochiligi va bastakorlik tafakkurining uzviy rivoj yo‘llari ko‘rsatib beriladi. San’atkor merosining bugungi ijro amaliyotidagi ahamiyati ham alohida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Orifxon Hotamov, bastakorlik, an’anaviy xonandalik, Farg‘ona–Toshkent uslubi, maqom, katta ashula, Jo‘raxon Sultonov, Chustiy, ustoz-shogird, musiqiy meros.

O‘zbek an’anaviy musiqa madaniyati taraqqiyotida ijrochilik va bastakorlik bir-biridan ajralmas holda shakllangan ikki muhim qatlam hisoblanadi. Bu jarayonda ayniqsa mumtoz ijrochilik amaliyotini chuqur o‘zlashtirgan, maqom va ashula yo‘llarining ichki qonuniyatlarini his eta olgan san’atkorlargina barqaror ijodiy maktab yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Musiqashunoslikda bunday san’atkorlar faoliyati alohida qadrlanadi, chunki ular nafaqat mavjud merosni talqin etadi, balki uni yangicha badiiy tafakkur bilan boyitadi. Shu ma’noda Orifxon Hotamov ijodi XX asr o‘zbek an’anaviy musiqasi tarixida alohida hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. U mohir sozanda, yuksak didli xonanda, sermahsul bastakor va tajribali pedagog sifatida bir necha yo‘nalishda samarali faoliyat olib borgan san’atkorlardan biridir.

Orifxon Hotamov 1925-yil 10-oktabrda Jizzax shahrida Hotamxon Ne‘matov xonadonida tug‘ilgan. Keyinchalik oilaning Yangiyo‘lga, so‘ng Toshkentga ko‘chib o‘tishi uning san’atkor sifatida shakllanishida muhim ijtimoiy-madaniy muhitni yuzaga keltirdi. Yoshligidan musiqa to‘garaklariga qatnashi, nay, g‘ijjak, tanbur, dutor hamda skripka kabi cholg‘ularni o‘zlashtira boshlagani uning eshituv xotirasi, ohang sezgisi va ijrochilik tafakkuri erta shakllanganini ko‘rsatadi [1.62]. Bu hol keyinchalik uning xonandalik va bastakorlik faoliyatida yaqqol seziladi. Manbalarda 1944-yildan musiqali teatrda, 1945-yildan esa O‘zbek davlat filarmoniyasida sozanda va xonanda sifatida faoliyat boshlagani qayd etiladi. 1950-yili Toshkent musiqa bilim yurtiga kirib, ustoz sozanda Z.Qodirovdan

g‘ijjak ijrochiligini o‘rganganligi esa uning kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlagan [2.28].

San‘atkor biografiyasidagi yana bir muhim jihat — uning ustozlar davrasida shakllanganidir. Yangiyo‘l musiqali drama teatridagi faoliyati davomida To‘xtasin Jalilov, Jo‘raxon Sulstonov, Ma‘murjon Uzoqov, Muxtorjon Murtazoyev, Xolxo‘ja To‘xtasinov kabi taniqli san‘atkorlar bilan bevosita muloqotda bo‘lgani, ular bilan bir sahnada ishlagani qayd etilgan. Ayniqsa Jo‘raxon Sulstonov bilan hamkorlik Orifxon Hotamovning ijrochilik estetikasi va bastakorlik qarashlarida chuqur iz qoldirgan. Manbalarda uning ijodiy shakllanishida Farg‘ona–Toshkent ijro an‘analari, xususan Jo‘raxon Sulstonovning xonandalik maktabi katta ta‘sir ko‘rsatgani alohida ta‘kidlanadi [3.34]. Bu ta‘sir Hotamov asarlarida ashula yo‘lining erkinligi, matn talqinidagi tabiiylik, avj tuzilishidagi aniqlik va usul sezimining ichki uyg‘unligida ko‘zga tashlanadi.

Orifxon Hotamovning ko‘p qirrali faoliyatini tushunishda uning faqat xonanda yoki bastakor sifatida emas, balki an‘anaviy ijrochilik tafakkurining vakili sifatida qaralishi lozim. U 1957-yilda O‘zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg‘ulari orkestriga, 1959-yilda esa G‘anijon Toshmatov rahbarligidagi musiqiy-etnografik ansamblga taklif etiladi. Ana shu davr san‘atkor hayotida ayniqsa muhim bosqich sanaladi. Chunki musiqiy-etnografik ansambl tarkibida Farg‘ona–Toshkent yo‘llariga mansub cholg‘u va aytim namunalarini tiklash, ularni qayta sahnalashtirish va saqlash ishlari olib borilgan. Demak, Orifxon Hotamov ijodi faqat yangi asarlar yaratish bilan cheklanmagan, balki merosni anglash, saqlash va zamonaviy ijro amaliyotiga mos holda yetkazish bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Musiqashunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, Orifxon Hotamov ijodining tayanch belgilaridan biri uning an‘anani ichdan turib his qilgan san‘atkor ekanidadir. Bastakorlikka doir umumiy nazariy qarashlarga ko‘ra, yetuk bastakor musiqiy meros va milliy an‘analarni idrok qilishi, ohanglarni bog‘lay olishi, musanniflik va nag‘mapardoqlik xususiyatlarini egallashi lozim. Hotamov faoliyati aynan shu mezonlarga javob beradi. Manbalarda u 500 dan ortiq kuy va ashulalar yaratgan bastakor sifatida tilga olinadi [6.110]. Bu nafaqat son jihatdan katta ko‘rsatkich, balki bir ijodkorning ma‘naviy-estetik qamrovi naqadar keng bo‘lganini ham anglatadi. Eng muhimi, bu asarlar bir qolipda emas, turli poetik manbalar, mavzular va ijro usullariga tayanib yaratilgan.

Orifxon Hotamov she‘riy matn tanlashda ham yuqori did va chuqur adabiy saviyani namoyon etgan. U ijodi davomida ellikka yaqin o‘tmish va zamon shoirlarining g‘azal, ruboiy va she‘rlariga murojaat qilgan. Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Lutfiy, Mashrab, Ogahiy, Nodira, Furqat singari mumtoz adabiyot namoyandalari bilan bir qatorda Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Turob To‘la, Zulfiya kabi zamondosh shoirlar ijodidan ham samarali foydalangani qayd etiladi [2.32]. Bunday keng qamrov tasodifiy emas. Bu, bir tomondan, san‘atkorning

mumtoz she'riyat bilan organik bog'liqligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, uning so'z va ohang munosabatini nihoyatda nozik his qilganini tasdiqlaydi. Mumtoz ashula yaratishda matn tanlovi hal qiluvchi omillardan biri bo'lgani uchun O.Hotamovning bu boradagi mas'uliyati uning asarlari umrboqiyiligiga xizmat qilgan.

San'atkorning ijodida Chustiy bilan bo'lgan hamkorlik alohida bobni tashkil etadi. Manbalarda u Chustiyning 30 dan ortiq g'azal va ruboiylariga musiqa bastalagani ko'rsatiladi. "Vatandir", "Paydo bo'libdur", "Muddaolardan hali", "Rizo qiladi", "Tengi yo'q", "Kechmadim", "Bahor ayyomida", "Bir qadah", "Noz etay keling" kabi asarlar shular jumlasidandir. Bu yerda muhim jihat shundaki, Chustiy she'riyatidagi insoniylik, vatanparvarlik, samimiylik, mehr-muhabbat va ruhiy poklik kabi mazmunlar O.Hotamovning musiqiy tafakkuri bilan tabiiy uyg'unlashgan. Ya'ni san'atkor she'rni oddiy ohang bilan bezamagan, balki uning ichki ruhini ashula tabiatiga mos badiiy tizimga aylantirgan. Shu jihatdan O.Hotamovning Chustiy bilan hamkorligi XX asr o'zbek bastakorlik amaliyotida so'z va ohang sintezining muvaffaqiyatli namunasi.

Orifxon Hotamov asarlarining tematik doirasi ham e'tiborga loyiq. Manbalarda uning ijodida Vatanga muhabbat, sadoqat, milliy g'urur, sevgi-muhabbat, insoniy komillik kabi mavzular yetakchi ekani qayd etiladi [2.38]. Biroq bu mavzularning quruq shior sifatida emas, mumtoz poetik tafakkur bilan bog'langan holda ifodalanganini alohida ta'kidlash kerak. O.Hotamovning ko'plab ashulalari tinglovchiga didaktik yo'l bilan emas, balki ohangning ichki ta'siri, avjning ruhiy bosqichlari, matn va kuy uyg'unligi orqali ta'sir ko'rsatadi. Shu bois uning asarlarida badiiy-emotsional qatlam bilan uslubiy pishqlik o'zaro birlashgan.

Orifxon Hotamov ijodida mumtoz uslubga xos tamoyillarni kuzatish mumkin. Avvalo, uning asarlarida Farg'ona–Toshkent ashula yo'llariga mansub ichki nafas seziladi. Ikkinchidan, u maqom tafakkuridan oziqlangan bastakor sifatida ohang rivojini bosqichma-bosqich quradi. Uchinchidan, matn tanlovi va talqini ijrochi imkoniyatlari bilan chambarchas uyg'unlashgan. To'rtinchidan, uning asarlari aksar hollarda xonandaning ovoz salohiyatini namoyon etishga xizmat qiladigan avj nuqtalari bilan boyitilgan. Bunday sifatlar Hotamovni oddiy ashula muallifidan ko'ra an'anaviy bastakorlik tafakkurining davomchisi sifatida ko'rsatadi [3.64].

Bu fikrni "Qoshi yosinmu deyin" ashulasi misolida ham ko'rish mumkin. Ushbu asar Navoiy g'azali asosida yaratilgan va xalq qalbidan o'rin olgan durdona namunalardan biri dir. Mazkur ashulada matnning nozik poetik tuzilishi bilan ohangning ma'noga mos badiiy yoyilishi o'rtasida ichki mutanosiblik seziladi. Asar nomining o'zidayoq tasvir va his uyg'unligi mujassambo'lsa, musiqiy talqinda bu ruh yanada teranlashadi. O.Hotamov Navoiy g'azaliga murojaat etar ekan, uni faqat mumtozlik ramzi sifatida emas, balki xonandalik ifodasi uchun keng imkoniyat beruvchi poetik manba sifatida anglagan. Shu sababli uning

Navoiyga bastalagan ashulalari, jumladan “Naylayin”, “Qaro bo‘libdur”, “Oqara boshladi”, “Bo‘libdur”, “Guluzorim mening”, “So‘nmasmu”, “Yor sendek” singari namunalar ijrochilik amaliyotida mustahkam o‘rin tutgan [1.61].

Orifxon Hotamov merosining yana bir muhim jihati — uning ijrochilik bilan bastakorlikni bir-biridan ajratmaganidir. U tanbur, dutor, skripka singari cholg‘ularni, yakkaxon va hamnafaslik-jornavoz xonandaligini, katta ashula an‘analarini chuqur o‘zlashtirgan san‘atkor sifatida tavsiflanadi. Bu esa uning bastakorlik tafakkuriga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Chunki ijro tajribasi bor bastakor kuy yaratishda xonanda nafasi, ohangning tabiiy yotishi, usulning ichki jozibasi va cholg‘u imkoniyatlarini amaliy his etadi. O.Hotamov asarlarining xonandalar repertuarida uzoq yashab kelayotgani ham aynan shu tajribaviy puxtalik bilan izohlanadi.

San‘atkor faoliyatida ustoz-shogird an‘anasi ham markaziy o‘rin tutadi. U 1976–1989-yillarda maqomchilar ansamblida ishlagan, 1989–1999-yillarda M.Uyg‘ur nomidagi san‘at institutida, 1999-yildan umrining oxirigacha esa davlat konservatoriyasida an‘anaviy ijrochilik bo‘yicha saboq bergan. Demak, O.Hotamov ijodi faqat sahna va fondagi yozuvlar bilangina emas, balki ta‘lim tizimi orqali ham yashab kelgan. Matluba Dadaboyeva, Mahbuba Hasanova, Beknazar Do‘stmurodov, Soyib Niyozov, Nasiba Sattorova kabi shogirdlar tilga olinishi uning maktabi davom etganini ko‘rsatadi. Bunda u xonandalikni shunchaki repertuar o‘rgatish darajasida emas, balki uslub, talaffuz, matn madaniyati va musiqiy fikrlash birligi sifatida yetkazgan bo‘lsa kerak. Bu xulosa uning ko‘p yillik pedagogik faoliyatidan tabiiy ravishda kelib chiqadi.

O.Hotamov ijodining ommalashuvida Rasulqori Mamadaliyev bilan bo‘lgan hamkorlik ham muhim o‘rin tutadi. Manbalarda bastakorning 50 ga yaqin asarlari Rasulqori Mamadaliyev talqinida o‘zgacha joziba topgani, shu orqali ular xalq orasida yanada keng yoyilgani qayd etilgan [3.71]. Bu holat ikki jihatdan ahamiyatli. Birinchidan, bastakor asarining hayotiyligi ko‘p jihatdan uning yetuk ijrochilar tomonidan talqin qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Ikkinchidan, ijrochi va bastakor o‘rtasidagi estetik yaqinlik asarning ichki mohiyatini to‘liq ochib bera oladi. Hotamov–Rasulqori hamkorligi aynan shunday badiiy uyg‘unlik namunasi sifatida baholanishi mumkin.

Musiqashunoslik uchun muhim masalalardan yana biri — san‘atkorning uslubiy mansubligini aniqlashdir. Orifxon Hotamov ijodini kuzatganda unda Farg‘ona–Toshkent maktabining yetakchi belgilarini ko‘rish mumkin. Bular, avvalo, ashulaning ichki nafasida, katta ashula va maqom yo‘llariga yaqin erkinlikda, so‘z talaffuzining musiqiylashgan tabiatida, avj qurilishida va xonandalik ifodasining dramatik kuchida namoyon bo‘ladi. Biroq O.Hotamov bu unsurlarni takrorlagan emas. U ularni o‘z ijodiy tajribasi bilan birlashtirib,

individual ifoda uslubiga aylantirgan. Shu jihatdan uning maktabi an’anaga tayanish va yangicha badiiy talqin o‘rtasidagi muvozanat bilan xarakterlanadi [3.72].

Shuningdek, O.Hotamov ijodining bugungi amaliyotdagi yashovchanligi ham bevosita ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Uning asarlari allaqachon xalq dilidan joy olgani, zamonaviy xonandalik yo‘nalishlarida ham o‘z maktab xususiyatini yo‘qotmagan holda ijro etilib kelayotgani ko‘plab mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladi. Bu juda muhim ko‘rsatkich. Chunki ko‘plab asarlar o‘z davrida mashhur bo‘lsa-da, keyingi avlod ijrochiligida tabiiy yashash kuchini yo‘qotadi. O.Hotamov merosi esa aksincha, yangi talqinlarda ham o‘z uslubiy qiyofasini saqlab qolmoqda. Demak, bu asarlarda an’anaviylik va badiiy universallik uyg‘unlashgan.

Orifxon Hotamovning davlat tomonidan e’tirof etilgani ham uning ijodiy salohiyatiga berilgan tarixiy bahodir. U “Mehnat faxriysi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”, “O‘zbekiston xalq hofizi” unvonlari bilan taqdirlangan, “Do‘stlik” ordeniga sazovor bo‘lgan [1.65]. Biroq san’atkorning haqiqiy qimmatini, avvalo, uning musiqiy merosi va ustozlik an’anasida namoyon bo‘ladi. Rasmiy e’tiroftarixiy fakt bo‘lsa, xalq xotirasida yashab qolgan asarlar — ijodkorning chinakam maqomini belgilovchi mezondir.

Xulosa qilib aytganda, Orifxon Hotamov XX asr o‘zbek an’anaviy musiqasi tarixida ijrochilik, bastakorlik va pedagogik faoliyatni bir butun holda mujassam etgan yirik san’atkorlardan biridir. Uning ijodiy merosi, bir tomondan, Farg‘ona–Toshkent maktabining davomiyligini ta’minlagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mumtoz ashula janrini yangi poetik va uslubiy qamrov bilan boyitgan. U mumtoz she’riyatni chuqur his etgan, ashula yaratishda so‘z va ohang muvozanatini saqlagan, an’anani soddalashtirmay, aksincha uning ichki estetik imkoniyatlarini kengaytirgan bastakor sifatida qadrlanishi lozim. Orifxon Hotamov merosi bugungi kunda ham ijro amaliyotida yashayotgan bo‘lsa, bu uning asarlari zamon bilan emas, badiiy mezon bilan yaratilganining dalilidir. Shu sababli Orifxon Hotamov ijodini o‘rganish faqat bir san’atkor hayotini yoritish emas, balki o‘zbek an’anaviy xonandaligi va bastakorlik tafakkurining uzluksiz taraqqiyot qonuniyatlarini anglash demakdir.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. Toshkent, “Niso Poligraf”, 2017.
2. Бегматов С. Орифхон Хотамов. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2000.
3. Бегматов С. Ҳофизлик санъати. Тошкент, “Муסיқа”, 2007.
4. Матёқубов О. Мақомот. Тошкент, “Муסיқа”, 2004.
5. Ражабов И. Мақомлар. Тошкент, 2006.
6. Жабборов А. Ўзбекистон композиторлари, бастакорлари ва муסיқашунослари. Тошкент, “Муסיқа”, 2018.